


## VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4 281,4 mln AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 1 116,0 mln AQSh dollariga yoki 35,3 % ga ko'paydi.

### Tashqi savdo aylanmasi va balansi (yanvar-dekabr, mln AQSh dollari)




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.


**Andijon viloyati bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori  
ulushga ega bo'lgan davlatlar**  
(2022- yil yanvar-dekabr, mln AQSh dollari)

TSAda eksport hajmi 1 246,2 mln AQSh dollariga (27,3 % ga ko'paydi) va import hajmi 3 035,2 mln AQSh dollariga (38,8 % ga ko'paydi) yetdi.

Hisobot davrida – 1 789,0 mln AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.













**20 ta yirik hamkor-davlatlar ichida 4 ta faol tashqi savdo  
balansi kuzatilgan davlatlar**  
(2022- yil yanvar-dekabr)













Andijon viloyati jahonning 77 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (36,2 %), XXR da (14,9 %), Qirg'iz Respublikasida (10,9 %), Qozog'istonda (10,8 %), Rossiya Federatsiyasida (10,7 %), Turkiyada (2,6 %) va Meksikada (2,0 %) qayd etilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansini kuzatilgan, xususan, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Ozarbayjon, Tojikiston va Afg'oniston shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansini saqlanib qolmoqda.

**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan  
tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**  
(yanvar-dekabr, mln AQSh dollari)

	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 407,8</b>	<b>1 258,1</b>	<b>1 551,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,8	0,9	0,8
	<i>Import</i>	1 407,0	1 257,2	1 551,1
	<b>XXR</b>	<b>340,4</b>	<b>525,0</b>	<b>639,2</b>
	<i>Eksport</i>	64,8	156,8	58,6
	<i>Import</i>	275,6	368,2	580,6
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>269,6</b>	<b>329,8</b>	<b>465,2</b>
	<i>Eksport</i>	238,7	300,0	429,2
	<i>Import</i>	30,9	29,8	36,0
	<b>Qozog'iston</b>	<b>174,4</b>	<b>358,1</b>	<b>463,8</b>
	<i>Eksport</i>	164,0	348,0	454,7
	<i>Import</i>	10,4	10,1	9,1
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>250,6</b>	<b>280,3</b>	<b>458,2</b>
	<i>Eksport</i>	65,7	89,6	180,2
	<i>Import</i>	184,9	190,7	278,0
	<b>Turkiya</b>	<b>62,0</b>	<b>94,9</b>	<b>110,1</b>
	<i>Eksport</i>	9,0	32,3	40,5
	<i>Import</i>	53,0	62,6	69,6
	<b>Meksika</b>	<b>7,1</b>	<b>6,1</b>	<b>86,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	7,1	6,1	86,4
	<b>AQSh</b>	<b>17,8</b>	<b>70,5</b>	<b>82,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	0,3	0,3
	<i>Import</i>	17,4	70,2	82,5
	<b>Shvetsariya</b>	<b>0,8</b>	<b>6,8</b>	<b>68,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	-
	<i>Import</i>	0,8	6,8	68,7
	<b>Braziliya</b>	<b>19,6</b>	<b>17,9</b>	<b>68,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,5
	<i>Import</i>	19,6	17,8	67,8

	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	<b>Germaniya</b>	<b>17,6</b>	<b>22,8</b>	<b>37,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	1,0	0,7
	<i>Import</i>	17,4	21,8	37,2
	<b>Hindiston</b>	<b>15,3</b>	<b>18,1</b>	<b>37,8</b>
	<i>Eksport</i>	0,7	0,4	1,0
	<i>Import</i>	14,6	17,7	36,8
	<b>Chexiya</b>	<b>19,3</b>	<b>17,8</b>	<b>24,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,1
	<i>Import</i>	19,2	17,7	24,1
	<b>Ozarbayjon</b>	<b>9,0</b>	<b>8,3</b>	<b>23,5</b>
	<i>Eksport</i>	8,1	7,2	23,0
	<i>Import</i>	0,9	1,1	0,5
	<b>Tojikiston</b>	<b>5,8</b>	<b>4,7</b>	<b>15,8</b>
	<i>Eksport</i>	4,3	1,9	14,4
	<i>Import</i>	1,5	2,8	1,4
	<b>Italiya</b>	<b>11,7</b>	<b>15,9</b>	<b>13,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,6	2,3	4,7
	<i>Import</i>	11,1	13,6	8,7
	<b>Slovakiya</b>	<b>6,5</b>	<b>6,0</b>	<b>12,6</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	0,0
	<i>Import</i>	6,5	6,0	12,6
	<b>Polsha</b>	<b>7,9</b>	<b>11,6</b>	<b>11,7</b>
	<i>Eksport</i>	0,4	1,3	1,3
	<i>Import</i>	7,5	10,3	10,4
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>5,2</b>	<b>10,2</b>	<b>10,7</b>
	<i>Eksport</i>	1,1	0,7	1,2
	<i>Import</i>	4,1	9,5	9,5
	<b>Afg'oniston</b>	<b>3,9</b>	<b>3,4</b>	<b>10,6</b>
	<i>Eksport</i>	3,3	3,2	10,6
	<i>Import</i>	0,6	0,2	0,0

## Andijon viloyatining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi

(yanvar-dekabr 2022- yil)\*



### Andijon viloyati

4 281,4

135,3

Andijon sh.

611,6

167,8

Xonobod sh.

91,8

90,3

*tumanlar:*

Oltinko'1

24,0

60,3

Andijon

100,8

138,6

Baliqchi

51,6

52,2

Bo'ston

37,4

152,8

Buloqboshi

31,5

211,6

Jalaquduq

72,5

145,8

Izboskan

38,5

191,3

Ulug'nor

21,2

83,6

Qo'rg'ontepa

80,6

140,6

Asaka

2 774,0

134,8

Marhamat

36,6

134,5

Shahrixon

109,5

152,9

Paxtaobod

32,7

173,0

Xo'jaobod

165,1

142,2

Eng yuqori hajm,  
mln AQSh dollari

1

Asaka – 2 774,0

2

Andijon sh. – 611,6

3

Xo'jaobod – 165,1

Eng quyi hajm,  
mln AQSh dollari

1

Buloqboshi – 31,5

2

Oltinko'1 – 24,0


3

Ulug'nor – 21,2



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 64,8 % ulush bilan 2 774,0 mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani 0,5 % ulush bilan 21,2 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

**Andijon viloyatiining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**  
(yanvar-dekabr, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan 31,5 % ga ortdi va jami TSAdagi ulushi 66,1 % ni tashkil etdi.


## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-dekabr)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 469 tani tashkil etib, ular tomonidan 1 246,2 mln AQSh dollari qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 27,3 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.

### XSST bo‘yicha eksport tarkibi

(2022- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,0 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunolari (38,0 %), turli xil tayyor buyumlar (31,3 %), sanoat tovarlari (22,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,2 %) va boshqalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



**Andijon viloyati XSST bo'yicha eksport tarkibi**  
(yanvar-dekabr,)

XSST tarkibi	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
<b>Jami eksport</b>	<b>978,9</b>	<b>1 246,2</b>	<b>167,5</b>	<b>127,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	39,6	40,0	80,0	101,1	4,0	3,2
Ichimliklar va tamaki	0,1	2,2	38,2	16,0 m.	0,01	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,4	5,9	36,3	52,2	1,2	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	10,7	70,5m.	33,9m.	0,0	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,003	0,001	1,1	23,3	0,0003	0,00005
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,9	25,8	61,4	14,0 m.	0,2	2,1
Sanoat tovarlari	312,8	285,1	2,5 m.	91,1	32,0	22,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	364,6	473,6	190,2	129,9	37,2	38,0
Turli xil tayyor buyumlar	240,5	389,6	134,9	162,0	24,6	31,3
Xizmatlar	7,7	13,3	196,6	172,8	0,8	1,0

**XSST bo'limi bo'yicha ayrim mahsulotlar eksporti tarkibi**  
(2022- yil yanvar-dekabr)


XSST bo'limi nomi	Mln AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	38,3	108,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,9	53,9
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,5	49,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,2	27,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	2,1	16,0m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	5,1	59,3
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	0,4	25,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,3	31,9
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	0,1	118,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	10,6	33,6m.
Ko'mir, koks va briketlar	0,1	-
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0006	26,7
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	0,00002	5,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	21,5	105,0m.
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	2,9	7,4m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,8	140,7
Noorganik kimyo moddalari	0,3	143,7

XSST bo'limi nomi	Mln AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	234,5	80,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'o'z yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	27,3	7,4 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	10,8	108,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	5,1	122,4
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	288,1	88,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	164,3	8,6 m.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	12,1	82,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	8,4	3,4 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	352,9	166,2
Poyabzal	23,4	136,7
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	5,0	3,4 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,0	77,0

## MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi

(yanvar-dekabr mln AQSh dollari, ulushi, % da)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga 1 115,1 mln AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning 44,9 % ni tashkil etdi.



## Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(2022- yil yanvar-dekabr, % da)



2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining 36,5 %) va Qirg'iz Respublikasi (34,4 %) davlatlari yetakchilik qildi. Mazkur ikki yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi 70,9 % ni tashkil etdi.



## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 38,7 mln AQSh dollari qiymatidagi 113,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilindi. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga ko'paydi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida meva-sabzavot mahsulotlari jami eksportning 3,1 foizini tashkil etdi.

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti (2022- yil yanvar-dekabr, o'sish sur'atlari qiymat jihatidan)












<p><b>Uzum</b> (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p>4,2 mln. AQSH dollari</p> <p>8,5 ming tonna</p>  <p>↑ 52,1 %</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>2,0 mln. AQSH dollari</p> <p>6,5 ming tonna</p>  <p>↑ 3,1 m.</p>	<p><b>Gilos</b></p> <p>1,7 mln. AQSH dollari</p> <p>2,2 ming tonna</p>  <p>↓ 111,1 %</p>	<p><b>Pomidor</b></p> <p>2,5 mln. AQSH dollari</p> <p>4,2 ming tonna</p>  <p>↓ 57,9 %</p>
<p><b>Shaftoli</b></p> <p>2,6 mln. AQSH dollari</p> <p>3,6 ming tonna</p>  <p>↑ 125,5 %</p>	<p><b>Bodring</b></p> <p>0,7 mln. AQSH dollari</p> <p>1,3 ming tonna</p>  <p>↑ 62,0 %</p>	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p>5,2 mln. AQSH dollari</p> <p>23,5 ming tonna</p>  <p>↑ 133,0 %</p>	<p><b>Piyoz</b></p> <p>2,0 mln. AQSH dollari</p> <p>9,7 ming tonna</p>  <p>↑ 113,9 %</p>

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya hamda Belarus Respublikasi davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## Meva va sabzavot mahsulotlarinig eksport geografiyasi

(2022- yil yanvar-dekabr)

Davlatlar	Tonna	AQSh dollari	ulushi, % da*
 Qirg'iz Respublikasi	94 870,3	20 911,3	54,5
 Rossiya Federatsiyasi	14 661,8	13 755,9	35,9
 Turkiya	895,2	1 715,6	4,5
 Belarus Respublikasi	748,8	529,7	1,4
 Qozog'iston	907,7	481,8	1,3
 Latviya	790,9	315,6	0,8
 Pokiston	67,5	270,0	0,7
 Armaniston	97,0	145,9	0,4
 Ozarbayjon	42,7	54,5	0,1
 Avstriya	32,1	43,2	0,1
 Polsha	38,8	43,2	0,1
 Tojikiston	30,8	25,0	0,1
 Estoniya	40,5	11,9	0,03
 Moldova Respublikasi	16,6	9,2	0,02
 Germaniya	4,0	6,0	0,02
 Boshqa davlatlar	20,2	12,4	0,03

2022- yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 54,5 foizi), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 1,5 baravar ko'p.

## To'qimachilik mahsulotlari eksporti



2022- yil yanvar-dekabr oylarida 589,8 mln AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 47,3 foizini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 16,7 % ga o'sdi.

Yil boshidan 300 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 29 ta davlatiga eksport qilindi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (59,7 %), paxtadan yigirilgan ip (21,6 %) asosiy ulushni egallagan.

### To'qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi

(yanvar-dekabr, mln AQSh dollari)

	2021- yil	2022- yil
<b>Jami:</b>	<b>505,6</b>	<b>589,8</b>
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	211,9	352,3
 Paxtadan yigirilgan ip	211,3	127,7
 Naqshli mato	40,3	48,2
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	14,1	15,0
 Ipak va ipak mahsulotlari	10,5	14,0
 Gilamlar	2,9	12,9
 Paxtadan gazlamalar	7,1	7,1
 Paxta mahsulotlari	5,4	5,8




## Andijon viloyatining importi

(2022- yil yanvar-dekabr)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 3 035,2 mln AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan 138,8 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (58,9 %), sanoat tovarlari (21,8 %) hamda xizmatlar (6,4 %) hisobiga toʻgʻri keldi.

### XSST boʻyicha import tarkibi

(2022- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga koʻra, 2022- yilning yanvar-dekabrda import qilingan tovarlar hajmi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 761,9 mln AQSh dollariga koʻpaydi va 2 839,7 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 195,5 mln AQSh dollariga yetdi.



**Andijon viloyati XSST bo'yicha import tarkibi**  
(yanvar-dekabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
<b>Jami import</b>	<b>2 186,5</b>	<b>3 035,2</b>	<b>98,9</b>	<b>138,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

*shu jumladan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21,6	17,5	107,4	81,0	1,0	0,6
Ichimliklar va tamaki	0,01	0,1	21,5	21,0 m.	0,0003	0,004
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	20,0	22,3	110,4	111,9	0,9	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,2	16,9	69,6	165,3	0,5	0,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,1	1,6	84,5	74,4	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	96,0	154,6	92,6	161,0	4,4	5,1
Sanoat tovarlari	415,8	662,4	104,7	159,3	19,0	21,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1 392,0	1 787,5	100,1	128,4	63,6	58,9
Turli xil tayyor buyumlar	120,1	176,8	95,3	147,2	5,5	5,8
Xizmatlar	108,7	195,5	78,4	179,9	5,0	6,4

**XSST bo‘limi bo‘yicha ayrim mahsulotlar importi tarkibi**  
(2022- yil yanvar-dekabr)


XSST bo‘limi nomi	mln AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Tirik hayvonlar	6,5	54,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,1	128,6
Sabzavotlar va mevalar	2,6	109,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,0	121,8
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,1	21,0 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>		
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7,7	2,4 m.
Probka va yog‘och-taxtalar	7,3	119,0
Tabiiy kauchuk (sun‘iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	4,0	79,4
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,7	92,3
<b>Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar</b>		
Ko‘mir, koks va briketlar	10,3	135,1
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	6,6	2,5 m.
Gaz, tabiiy va sun‘iy	0,01	-
<b>Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>		
O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1,5	72,5
Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,1	183,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar</b>		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	51,1	115,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	41,7	2,7 m.
Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	22,7	157,9
Organik kimyo moddalari	14,5	199,6

davomi

XSST bo'limi nomi	mln AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	265,2	169,9
Metaldan tayyorlangan buyumlar	149,5	167,5
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	138,6	149,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	65,6	159,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	1 279,0	133,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	157,7	105,6
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	144,0	93,3
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	84,8	144,6
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	78,4	191,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	48,1	125,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	42,5	122,6
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3,6	113,1

2022-yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 11,0 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga kamaydi.

**MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi**  
(2022- yil yanvar-dekabr, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 69 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi XXR, Rossiya Federatsiyasi, Meksika, AQSh, Turkiya va Shvetsariya,) jami importning 89,5 % ulushini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
(2022- yil yanvar-dekabr, % da)




## Mashinalar va transport asbob-uskunolari importi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunolari hajmi 1 787,6 million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28,4 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 58,9 % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunolari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2022- yil yanvar-dekabr)




2022- yil yanvar-dekabr oylarida mashina va transport asbob-uskunolari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 395,5 mln AQSh dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Andijon viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi – 1 118,4 mln AQSh dollari (62,6 %) va XXR - 324,6 mln AQSh dollari (18,2 %), Meksika 75,9 mln AQSh dollari (4,2 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.

## Sanoat tovarlari importi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi 662,4 mln AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,3 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 21,8 % ga yetdi.

### Sanoat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

(2022- yil yanvar-dekabr)



Sanoat tovarlari importi asosan cho'yan va po'lat (265,2 mln AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (149,5 mln AQSh dollari), rezina buyumlari (138,6 mln AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (65,6 mln AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.